


## 2020- yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funksional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infrazuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 539,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 398,2 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 79,4 mlrd. so'm-ga o'sdi va 487,9 mlrd. so'mga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 118,4 mlrd. so'mga o'sgan va 446,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VII - diskret (iyul) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil VIII – diskret (avgust) oyining hajmi 30,9 mlrd. so'mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning VII va VIII – diskret oylari o'rtasidagi farqi 26,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
*(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3 539,2</b>	<b>103,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	159,7	111,6
Moliyaviy xizmatlar	813,9	134,4
Transport xizmatlari	625,6	96,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	545,1	99,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	120,2	81,2
Savdo xizmatlari	1 122,6	93,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	61,3	86,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,9	110,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	42,7	100,2
Ijara xizmatlari	56,3	91,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	52,8	95,4
Shaxsiy xizmatlar	78,5	92,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	167,8	121,8
Boshqa xizmatlar	136,9	87,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 31,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (23,0 %), transport xizmatlari (17,7 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha (4,7 %) qayd etildi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hissi - 1,7 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (34,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (10,4 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,2 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (18,8 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (13,4 % ga), ijara xizmatlari (8,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (7,2 % ga), savdo xizmatlari (6,2 % ga), kompyuter ta'mirlash xizmatlari (4,6 % ga), shuningdek, transport xizmatlari (3,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

### *Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,7 % ni tashkil etib, bu 1 122,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

### Savdo xizmatlari tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismiga, aniqrog'i 81,0 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,0 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar** *(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 813,9 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 572,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 23,0 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 241,3 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 34,4 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ularni o'sish sur'ati 175,8 % ga yetgan.



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
*(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,9 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,6 % oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,5 % ni tashkil etadi.



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 159,7 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



*Dastlabki ma'lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalab, 97,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,3 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 % shuningdek, noshirlik xizmatlari - 0,6 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar**  
*(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 100,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.




**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 120,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,4 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 14,6 mlrd. so'mga kamaydi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 82,7 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalarini, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

2020- yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 42,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 536,0 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 3 536,0 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra, % da – 101,3 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, - 340,7 ming so'mga

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

### 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 12 752 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 64,8 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 133,8 %



## 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 64,8 %, sanoat - 16,4 %, qurilish - 7,8 % ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi 11,0 % ga to'g'ri keldi.

## 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (50,2 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,1 % ni tashkil etdi.



### *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.


Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9 532 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 40,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 11,7 %, tashish va saqlash - 5,5 %, axborot va aloqa - 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 37,5 % ni tashkil etgan.

### 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*





### Dastlabki ma'lumotlar

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 220 taga ko'paydi.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 64,3 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 507 taga ko'paydi va 6 405 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 16,0 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 178 taga ko'paydi va 1 291 tani tashkil etdi.

### 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 83,5 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 78,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 203 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 653 tani tashkil etdi va o'sishi esa 43,0 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,8 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 57,7 % ekvivalentida qayd etildi.



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### *Dastlabki ma'lumotlar*

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Тел.: 79-223-63-31**